(5). Coyle D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. D.Coyle, Ph.Hood, D.Marsh. Cambridge, Cambridge University Press, 2010, 170 p.

Alisherova Guldiyora Fazogirovna (Andijon davlat Pedagogika instituti izlanuvchisi;
Gmail: alisherovaguldiyora2@gmail.com)

TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING LEKSIK ZAXIRASINI BOYITISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta'lim jarayonida o'quvchilarning so'z boyligini oshirishda zamonaviy pedagogik usullardan foydalanish masalalari ko'rib chiqiladi. O'quvchilarning yangi so'zlarni o'rganishi, ularni nutqda to'g'ri qo'llashi va til ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlar hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, so'z boyligini kengaytirishga yordam beruvchi samarali usullar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari mazkur usullar o'quvchilarning nutqini rivojlantirish va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *so'z boyligi, leksik zaxira, ta'lim, pedagogik usullar, interaktiv metodlar, nutq, til o'rganish.*

СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРОЦЕССЕ ОБОГАЩЕНИЯ ЛЕКСИКОНА УЧАЩИХСЯ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы использования современных педагогических методов в процессе обогащения словарного запаса учащихся. Освещается значение интерактивных методов и современных образовательных технологий в изучении новых слов, их правильном употреблении в речи и развитии языковых навыков обучающихся. Анализируются эффективные способы, способствующие расширению словарного запаса. Результаты исследования показывают, что данные методы способствуют развитию речи учащихся и повышению эффективности образовательного процесса.*

Ключевые слова: *словарный запас, лексический запас, образование, педагогические методы, интерактивные методы, речь, изучение языка.*

MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES FOR ENRICHING STUDENTS' LEXICAL RESOURCES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation. *This article discusses the use of modern pedagogical methods in enriching students' vocabulary during the educational process. The importance of interactive methods and modern educational technologies in learning new words, using them correctly in speech, and developing language skills is highlighted. Effective approaches that contribute to vocabulary expansion are analyzed. The results of the study show that these methods help improve students' speech development and increase the effectiveness of the educational process.*

Keywords: *vocabulary, lexical competence, education, pedagogical methods, interactive methods, speech, language learning.*

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash hamda ularning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish, ularda mustaqil fikrlash, o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda aniq hamda ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda o'quvchilarning leksik zaxirasini boyitish alohida o'rin tutadi. Chunki so'z boyligi insonning fikrlash darajasi, nutq madaniyati va muloqot samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Leksik zaxiraning yetarli darajada shakllanganligi o'quvchilarga o'quv materiallarini chuqurroq o'zlashtirish, matn mazmunini to'g'ri anglash, o'z fikrini erkin bayon etish hamda samarali muloqotga kirishish imkonini beradi. Aksincha, so'z boyligining cheklanganligi o'quvchilarning nutqiy faolligi pasayishiga, fikrlarini to'liq ifodalay olmasligiga va ta'lim natijalarining sustlashishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois til ta'limida o'quvchilarning leksik zaxirasini muntazam ravishda boyitib borish dolzarb pedagogik vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini oshirish, xalqaro standartlarga mos raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash hamda o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Umumta'lim maktablarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari, raqamli ta'lim resurslari va interaktiv metodlardan foydalanish imkoniyatlari tobora kengayib bormoqda. Bunday yondashuvlar o'quvchilarning darslarga bo'lgan qiziqishini

oshirish, ularning bilish faoliyatini faollashtirish hamda yangi leksik birliklarni samarali o‘zlashtirishga xizmat qilmoqda.[1]

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchini ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishi bilan ahamiyatlidir. Xususan, interaktiv metodlar, muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, didaktik o‘yinlar, klaster, aqliy hujum, bahs-munozara va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu metodlar orqali o‘quvchilar yangi so‘zlarni nafaqat o‘rganadilar, balki ularni turli nutqiy vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini ham egallaydilar.

Shu munosabat bilan, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning leksik zaxirasini boyitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini o‘rganish, ularning afzalliklari va amaliy samaradorligini tahlil qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada o‘quvchilarning leksik zaxirasini rivojlantirishda qo‘llanilayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni hamda samaradorligi tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur muammoning nazariy va amaliy jihatlari ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish, til o‘qitish metodikasi hamda leksik kompetensiyani shakllantirish masalalari Sh.Safarov, N.Mahmudov, A.Nurmonov, M.Yo‘ldoshev, E.Begmatov kabi olimlarning ilmiy ishlarida yoritilgan. Shuningdek, til o‘rganish jarayonida leksik birliklarni o‘zlashtirish, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish hamda so‘z boyligini oshirishning metodik asoslari V.G.Kostomarov, E.I.Passov, N.D.Galskova, I.L.Bim kabi xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq qilingan. Mazkur tadqiqotlar o‘quvchilarning leksik zaxirasini boyitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot ta’lim jarayonida o‘quvchilarning leksik zaxirasini boyitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rnini aniqlashga qaratilgan.

Leksik zaxira bu shaxsning biladigan, tushunadigan va nutq jarayonida faol yoki passiv ravishda qo‘llay oladigan so‘zlar yig‘indisidir. Leksik zaxira til kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, o‘quvchining og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarning leksik zaxirasi qanchalik boy bo‘lsa, ular o‘z fikrlarini shunchalik aniq, ravon va mazmunli ifodalay oladilar. Tadqiqot davomida mavzuga oid pedagogik, metodik va lingvistik adabiyotlar o‘rganildi hamda tahlil qilindi. O‘quvchilarning so‘z boyligini rivojlantirish, leksik kompetensiyani shakllantirish va nutqiy faoliyatni takomillashtirishga doir ilmiy qarashlar umumlashtirildi.[1] Uning metodologik asosini kompetensiyaviy yondashuv, kommunikativ yondashuv hamda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari tashkil etdi. Mazkur yondashuvlar o‘quvchilarni ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va yangi bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotda nazariy va amaliy metodlardan foydalanildi. Nazariy metodlar sifatida ilmiy manbalarni tahlil qilish, qiyoslash, tizimlashtirish va umumlashtirish usullari qo‘llanildi. Ushbu metodlar orqali leksik zaxirani boyitishning pedagogik asoslari, leksik kompetensiyaning mazmun-mohiyati hamda zamonaviy ta’lim texnologiyalarining imkoniyatlari o‘rganildi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilinib, mavzuga oid nazariy qarashlar o‘zaro qiyoslandi.[2] Tadqiqot davomida leksik kompetensiya o‘quvchilarning til birliklarini bilishi, ularni anglay olishi va nutq jarayonida to‘g‘ri qo‘llay olish qobiliyatini ifodalovchi muhim tarkibiy qism sifatida baholandi.

Amaliy tadqiqot jarayonida o‘quvchilarning leksik zaxirasini boyitishda qo‘llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning samaradorligi tahlil qilindi. Xususan, interaktiv metodlar – ta’lim jarayonida o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undovchi, ularning mustaqil fikrlashi, muloqotga kirishishi va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi usullar hisoblanadi. Mazkur metodlar o‘quvchilarning leksik zaxirasini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular yangi so‘zlarni nafaqat o‘rganish, balki amaliy nutqda qo‘llash imkoniyatini ham yaratadi. Jumladan, “Aqliy hujum” metodida o‘quvchilar ma’lum bir mavzu yuzasidan o‘z fikrlarini erkin bayon qiladilar, natijada yangi so‘z va iboralar bilan tanishadilar. “Klaster” metodi esa ma’lum tushuncha atrofida leksik birliklarni guruhlash imkonini beradi. Guruhli ishlar va munozaralar jarayonida o‘quvchilar o‘zaro muloqotga kirishib, yangi o‘rgangan so‘zlarini nutqda qo‘l-

[1] O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. Toshkent, 2020.

[2] Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent, “Moliya”, 2003, 10–18-betlar.

lash malakasini rivojlantiradilar.[1] "BBB", "Insert", "Sinkveyn" kabi usullarning ham o'quvchilar faolligiga va so'z boyligini oshirishga ta'siri o'rganildi. Ushbu metodlar dars jarayonida o'quvchilarning qiziqishini oshirishi, ularni erkin fikr bildirishga undashi hamda yangi leksik birliklarni faol o'zlashtirishiga yordam berishi aniqlandi. Ayniqsa, guruhli ishlar va muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar o'quvchilarning muloqotga kirishish faolligini oshirib, yangi so'zlarni amaliy nutqda qo'llash imkoniyatini kengaytiradi. Jarayon davomida kommunikativ yondashuvning imkoniyatlariga ham alohida e'tibor qaratildi. Chunki o'quvchilar yangi leksik birliklarni nafaqat yodlab olishi, balki ularni turli nutqiy vaziyatlarda qo'llay olishi muhim hisoblanadi. Shu sababli dialog, munozara, bahs-munozara, rolli o'yinlar va ijodiy topshiriqlar orqali o'quvchilarning faol nutqiy faoliyatini tashkil etish usullari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari bunday metodlar o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytirish bilan birga, ularning muloqot madaniyati, nutqiy faolligi va ijodiy fikrlash qobiliyatini ham rivojlantirishini ko'rsatdi.

Bundan tashqari, dars jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning imkoniyatlari ham o'rganildi. Elektron ta'lim resurslari, multimedia vositalari, taqdimotlar, videomateriallar va raqamli platformalardan foydalanish o'quvchilarning yangi so'zlarni tezroq o'zlashtirishiga hamda ularni uzoq muddat xotirada saqlashiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Zamonaviy ta'lim vositalari o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, dars samaradorligini oshirish va o'quv jarayonini yanada qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi.

Shuningdek, kuzatish va pedagogik tahlil metodlari asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi samaradorligi baholandi. Olingan natijalar o'quvchilarning so'z boyligini oshirishda interaktiv va innovatsion metodlardan foydalanish yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot yakunida zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning leksik zaxirasini boyitish, nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish hamda ta'lim samaradorligini oshirishning muhim vositalaridan biri ekanligi aniqlandi. Natijalar asosida ta'lim jarayonida leksik zaxirani rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqildi va ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha takliflar berildi.

Tahlillar va natijalar. Tadqiqot davomida o'quvchilarning leksik zaxirasini boyitishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar va usullarning samaradorligi o'rganildi. Olingan ma'lumotlar interfaol metodlardan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishini, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishini hamda yangi leksik birliklarni o'zlashtirishni yengillashtirishini ko'rsatdi. Ayniqsa, "Aqliy hujum", "Klaster", "BBB", "Insert", "Sinkveyn" kabi metodlar o'quvchilarning mavzu yuzasidan erkin fikr yuritishiga, tushunchalar o'rtasidagi bog'liqlikni anglashiga va lug'at boyligini kengaytirishiga yordam beradi. Mazkur usullar orqali o'quvchilar bilimlarni tayyor holatda qabul qilishdan ko'ra, ularni mustaqil ravishda egallashga intiladilar.[2]

Tahlil natijalari kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning ham samarali ekanligini ko'rsatdi. Bunday darslarda dialog, suhbat, munozara va taqdimotlar orqali fikr almashish jarayoni faollashadi. Natijada yangi o'zlashtirilgan so'z va iboralar amaliy nutqda faol qo'llanadi, muloqot ko'nikmalari shakllanadi va lug'at hajmi kengayadi. Jamoaviy faoliyat davomida ishtirokchilar bir-birining nutqidan yangi til birliklarini o'zlashtirib, o'z nutq imkoniyatlarini boyitadilar. Masalan, rus tili darslarida yangi mavzuga oid so'zlarni o'rgatishda so'z o'yinlari va guruhlararo musobaqalardan foydalanish ijobiy natija beradi. O'quvchilar berilgan so'zlar ishtirokida gap tuzish, sinonim va antonimlarni topish yoki kichik matn yaratish kabi topshiriqlarni bajarish orqali yangi leksik birliklarni tezroq o'zlashtiradilar. Bunday mashg'ulotlar darsga qiziqishni oshirib, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi.

Raqamli ta'lim vositalarining imkoniyatlarini o'rganish ham muhim xulosalarni berdi. Elektron lug'atlar, mobil ilovalar, videodarslar, multimedia taqdimotlari va onlayn platformalar yangi so'zlarni o'rganish jarayonini yanada qulaylashtiradi. Ko'rgazmali va eshitish orqali qabul qilinadigan materiallar o'quvchilarning e'tiborini kuchaytiradi hamda axborotni yaxshiroq eslab qolishiga yordam beradi. Audio va video resurslar yordamida leksik birliklarning ma'nosi, talaffuzi va qo'llanish xususiyatlarini o'zlashtirish imkoniyati kengayadi.

Gamifikatsiya elementlariga asoslangan mashg'ulotlar ham ijobiy natijalarni namoyon etdi. Turli viktorinalar, so'z o'yinlari, interaktiv topshiriqlar va onlayn musobaqalar o'quvchilarning qiziqishini orttirib, o'quv jarayonida faol qatnashishga undaydi. O'yin shaklidagi topshiriqlar yangi leksik materiallarni ta-

---

[1] Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent, "Nihol", 2013, 45–52-betlar.

[2] Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent, "Nihol", 2013.

biiy va qiziqarli tarzda o‘zlashtirish imkonini yaratadi. Bu esa o‘zlashtirilgan bilimlarning uzoq muddat xotirada saqlanishiga xizmat qiladi.[1]

O‘rganishlar zamonaviy pedagogik texnologiyalarni uyg‘un holda qo‘llash eng yuqori samarani berishini ko‘rsatdi. Interfaol metodlarni raqamli vositalar bilan birlashtirish, guruhli faoliyatni multimedia materiallari bilan boyitish hamda kommunikativ topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarning leksik kompetensiyasini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday yondashuv mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini shakllantiradi, ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradi va o‘quv faoliyatining sifatini oshiradi.

Umuman, olingan natijalar zamonaviy pedagogik texnologiyalar leksik zaxirani boyitishning samarali vositasi ekanligini tasdiqladi. Ular nutqiy kompetensiyani rivojlantirish, til birliklaridan o‘rinli foydalanish, muloqot madaniyatini shakllantirish hamda o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bois ta’lim amaliyotida interfaol metodlar, kommunikativ yondashuv va raqamli resurslardan keng foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Bugungi kunda o‘quvchilarning leksik zaxirasini boyitish ta’lim jarayonining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish hamda ta’lim samaradorligini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, interfaol metodlar, kommunikativ yondashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va gamifikatsiya elementlaridan foydalanish yangi leksik birliklarni samarali o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari o‘quvchilar yangi so‘zlarni amaliy faoliyat davomida qo‘llagan hollarda ularni tezroq o‘zlashtirishi va uzoq muddat eslab qolishini ko‘rsatdi. Shu bois ta’lim jarayonida o‘quvchilarni faol muloqotga jalb etish, guruhli ishlar, munozaralar, ijodiy topshiriqlar hamda raqamli ta’lim vositalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga tizimli ravishda joriy etish nafaqat o‘quvchilarning leksik zaxirasini boyitadi, balki ularning mustaqil fikrlash, ijodkorlik va muloqot kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Kelgusida mazkur yo‘nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar leksik kompetensiyani rivojlantirishning yangi usul va vositalarini ishlab chiqishga hamda ta’lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim tizimini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari hamda sohaga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar.

(2). Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik asoslari. Toshkent, “Sangzor”, 2006, 220-bet.

(3).Mahmudov N. Til va nutq masalalari. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2013, 240-bet.

(4). Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent, “Nihol”, 2013, 280-bet.

(5). Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent, “Fan”, 2006, 260-bet.

(6). Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent, “Moliya”, 2003, 172-bet.

(7). Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иностранному языку. Москва, Просвещение,1991, с.223

(8). Галскова Н.Д. Теория обучения иностранным языкам. Лигводидактика и методика. Москва, «Академия», 2008, с.336

(9). Бим И.Л. Теория и практика обучения немецкому языку в средней школе. Москва, «Просвещение», 1988, с.256

(10). Yo‘ldoshev M. Matn lingvistikasi asoslari. Toshkent, “Fan”, 2007, 180-bet.

Tajimuratova Karima Abdullaevna (Ajiniyoz nomidagi NDPI “Maktabgacha tarbiya va defektologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi),
Kalibaeva Ulzada Erkinbaevna (NDPI Logopediya yo‘nalishi I bosqich magistranti)

KO‘RISH QOBILIYATI BUZILGAN BOLALAR BILAN KORREKSION-LOGOPEDIK ISH OLIB BORISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ko‘rish qobiliyati buzilgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-logopedik ishning nazariy asoslari, usullari va amaliy yo‘nalishlari yoritilgan. Maqolada tiflopedagogika va logopediyaning o‘zaro bog‘liqligi, ko‘rish nuqsoni bilan birga keladigan nutq buzilishlarining turlari, logopedik tekshiruv va korreksiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari hamda maxsus ta’lim muassasa-*

[1] Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent, “Fan”, 2006.